
Giyohvandlik umr zavoli

“Yoshlar orasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning tarqalishini oldini olish” kompleks tezkor-profilaktik tadbiri doirasida O‘zbekiston tumanida yoshlar vakillari bilan targ‘ibot tadbirlari davom etmoqda.

Shu mavzudagi yana bir uchrashuv-muloqot tumandagi 3-umumta‘lim maktabi yuqori sinf o‘quvchilar ishtirokida tashkillandi. Unda tuman hokimining chegara masalalari bo‘yicha yordamchisi, Milliy gvardiya, ma‘naviyat va ma‘rifat markazi tuman bo‘linmasi mas‘ullari, mutasaddilari qatnashdilar.

Ochiq muloqotda giyohvand moddalarning inson sog‘lig‘i va jamiyatga keltiradigan og‘ir zararlari haqida suhbat borib, yoshlarni bu kabi zararli illatlarga aldanib qolmaslikka targ‘ibot qilindi. O‘quvchilar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga mutasaddilardan javoblar oldilar.

2025-02-15 16:16:05